


Navoiy viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 514 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,6 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (22,2 %), savdo sohasida (15,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (21,8 %), qurilishda tarmog'ida (10,9 %), yashash va ovqatlanishda (9,7 %), tashish va saqlashda (3,9 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 592,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 11,3 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 102,1 %ni tashkil qildi;



– 158,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 9,1 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 126,7 %ni tashkil qildi;



– 243,4 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiylajmining 69,6 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 93,0 % ni tashkil qildi;



– 528,1 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatdagi jami xizmatlar xajmining 64,0 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 102,0 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiylajmining 75,9 % yoki 788,6 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 4,8 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 15,7 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 20,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 2,4 mln. AQSh dollariga yoki 13,3 % ga kam;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,9 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 36,8 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 82,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

SHahar va tumanlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (142,8 mlrd.so'm), Navoiy shaxri (132,1 mlrd.so'm) va Qiziltepa (103,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martida shahar va tumanlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



SHahar va tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (296,9 mlrd.so'm), Karmana tumani (143,1 mlrd.so'm) va Qiziltepa (133,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



SHahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Navoiy shahri (231,4 mlrd.so'm), Karmana tumani (64,3 mlrd.so'm) va Qiziltepa (53,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
shahar va tumanlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Navoiy viloyati	11,3	69,6	64,0
Navoiy shahri	3,0	82,9	48,5
Zarafshon shahri	71,1	11,5	83,7
tumanlar:			
Karmana	35,5	92,7	66,2
Konimex	96,6	100,0	100
Qiziltepa	67,0	96,2	99,6
Navbaxor	56,2	100,0	100,0
Nurota	99,2	100,0	100,0
Tomdi	95,3	100,0	100,0
Uchquduq	99,8	100,0	71,2
Xatirchi	62,7	100,0	99,3

SHahar va tumanlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Uchquduq (99,8%), Nurota (99,2 %), va Konimex (96,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Konimex, Navbaxor, Nurota, Tomdi tumanlari (100,0 %), Qiziltepa (99,6 %) va Xatirchi (99,3 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Konimex, Navbaxor, Nurota, Tomdi , Ucquduq, Xatirchi tumanlari (100,0 %), Qiziltepa (96,2 %), Karmana (92,7 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 21,0 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 27,8 %). YalM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 35 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, respondentlarning 22,9 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 40,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilish sohasida – 33,3 %, savdo sohasida -20,0 % xizmatlar sohasida – 10,0 % va 70,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 50,0 % va 25,0 %, sanoatda – 11,1 % va 44,5 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 66,7 %, savdoda – 60,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 25,0 %, xizmatlarda – 20,0 % sanoatda – 44,5 %, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 44,4 % sanoat korxonalari, 40,0 % – savdo, 60,0 % – xizmatlar, 62,5 % – qishloq, o’rmon va baliq xo`jaligi va 33,3 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko’rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.